

TARIXIY TERMINOLOGIK LEKSIKA TAVSIFI

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti katta o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21247867>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy terminologik leksikaning mohiyati, uning o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘rni va taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. Tarixiy terminlarning shakllanish manbalari, ularning semantik xususiyatlari hamda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy terminologik birliklarning istorizm va arxaizmlar bilan munosabati, ularning ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Tarixiy manbalar asosida terminlarning qo‘llanish doirasi, bugungi o‘zbek terminologik tizimidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Mazkur tadqiqot tarixiy terminologik leksikaning til taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash hamda terminshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy terminologiya, arxaizm, istorizm, til taraqqiyoti, tarixiy leksika, terminologik tizim, termin, tarixiy atamalar, o‘zbek tili, leksikologiya, terminshunoslik, semantik taraqqiyot, tarixiy manbalar, terminlarning shakllanishi, lug‘at tarkibi.

ОПИСАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность исторической терминологической лексики, её место в словарном составе узбекского языка и основные этапы её развития. Анализируются источники формирования исторических терминов, их семантические особенности, а также изменения, возникшие в связи с общественным развитием. Особое внимание уделяется взаимосвязи исторических терминологических единиц с историзмами и архаизмами, раскрываются их научное, культурное и историческое значение. На основе исторических источников оцениваются сфера употребления терминов, их место в современной узбекской терминологической системе и тенденции дальнейшего развития. Результаты исследования способствуют определению роли исторической терминологической лексики в развитии языка и обогащению научных исследований в области терминоведения.

Ключевые слова: историческая терминология, архаизм, историзм, развитие языка, историческая лексика, терминологическая система, термин, исторические термины, узбекский язык, лексикология, терминоведение, семантическое развитие, исторические источники, формирование терминов, словарный состав.

DESCRIPTION OF HISTORICAL TERMINOLOGICAL LEXIS

Abstract: This article examines the essence of historical terminological lexis, its place in the vocabulary of the Uzbek language, and the main stages of its development. It analyzes the sources of the formation of historical terms, their semantic characteristics, and the changes that have emerged in connection with the development of society. Particular attention is paid to the relationship between historical terminological units, historicisms, and archaisms, while their scientific, cultural, and historical significance is revealed. Based on historical sources, the study evaluates the scope of the use of historical terms, their position

within the modern Uzbek terminological system, and their developmental tendencies from a scholarly perspective. The findings contribute to identifying the role of historical terminological lexis in the development of the language and to enriching research in the field of terminology.

Keywords: historical terminology, archaism, historicism, language development, historical lexis, terminological system, term, historical terms, Uzbek language, lexicology, terminology, semantic development, historical sources, formation of terms, vocabulary.

O‘zbek tilshunosligida tarixiy terminologiyaning yuzaga kelishi va mustaqil terminologik tizim sifatida shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Ushbu jarayonlar tilda bir vaqtda emas, balki bosqichma-bosqich kechadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jamiyat taraqqiyoti va ilm-fan rivoji natijasida turli sohalarga oid terminlarning tilimiz lug‘at boyligini yanada kengaytirayotgani alohida e’tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, terminologik tizimning takomillashuvi yangi terminlarning yaratilishiga zamin yaratmoqda. Tarixiy terminologiya doirasida ma’nodoshlik, polifunksionallik, variantdoshlik va dubletlik kabi til hodisalarining yuzaga kelish omillarini aniqlash, tilning ichki va tashqi imkoniyatlari asosida shakllangan terminlarning milliy til tizimiga ta’sirini baholash hamda murakkab tuzilishli terminlarning hosil bo‘lish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat va davlat taraqqiyotida tarixni to‘g‘ri va xolis yoritish muhim o‘rin tutadi. Tarixning jamiyat a’zolari hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir. Tarixga oid terminlarning shakllanishi, uning ilk manbalari haqida so‘z yuritmoqchi ekanmiz, ijtimoiy hodisa hisoblangan tilning jamiyat hayoti, ishlab chiqarish, fan taraqqiyoti bilan bog‘liq ekanligini nazarda tutib, tadqiqot obyekti bo‘lgan tarixga oid terminlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Terminshunos V.P.Danilenkoning qayd etishicha, umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili terminologiya deyiladi¹. Xususan, fan tili umumadabiy tilning bir qismi bo‘lib, badiiy adabiyot tili va jonli so‘zlashuv tili bilan bir qatorda qo‘llanadi. U umumadabiy til asosida shakllanadi va rivojlanadi². Demak, ilmiy tilning asosiy tarkibiy qismlarini lug‘aviy boylik, grammatik tizim va strukturaviy qurilish tashkil etsa, terminologiya muayyan fan hamda texnika sohalariga xos bo‘lgan maxsus so‘zlar tizimini anglatadi.

Shuni aytish joizki, “leksikaning muayyan fan va texnika, san’at va madaniyat sohasiga qarashliligiga ko‘ra guruhlanishida asosan *ilmiy-texnikaviy atamalar* (terminlar) va ularning tizimi nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tizimni *ilmiy leksika* deyilsa ham, xato bo‘lmaydi. Ba’zida ilmiy leksikaga tegishli leksik birliklar ham, tarixiy terminologik va kasb-hunar tizimida bo‘lgani bilan umumxalq lisoniy mulki hisoblanmaydi, ilm-fan va texnikaning muayyan sohalariga bilan shug‘ullanuvchi til jamoalari uchungina tushunarli bo‘ladi”³. Shu bois so‘zlarning mazmunini anglash va idrok etish uchun chuqur bilim va boy tajriba bo‘lishi lozim. Masalan, tarixga oid *alg‘ov, amin, baydoq, barlos, baqir, beka, bekat, bekach, biy, birong‘or, amirlik, arizachi, bekvachcha, beklik, xazinachi, bitikchi, bosmachilik,*

¹ Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 8.

² Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 5.

³ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – B. 126.



bosqoq kabi terminlarni faqat shu soha vakillarigina tushunadi.

Xususan, “ilmiy termin bu – ilmiy til (nutq), ilmiy matnlarning lug‘aviy boyligi, ularning sintagmatik tarkibini tashkil etuvchi maxsus lug‘aviy birliklardir. Ilmiy termin ilmiy sohalarining talab va ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. Shu sababli, haqiqiy ilmiy termin u yoki bu fan sohasiga aloqador ilmiy tushuncha va tasavvurlarni to‘la, aniq va ixcham ifodalashi lozim bo‘ladi. Har qanday termin ilmiy matn yoki ilmiy nutq talabi bilan paydo bo‘ladi va ayni o‘sha lisoniy muhit, makonda yashaydi va xizmat qiladi”⁴. Shu nuqtai nazardan, terminlarning shakllanishi va umumiste’olda bo‘lishi, jamiyatning ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu o‘rinda G.Kitrij “Terminlar odamlar ma’lum bir maqsadda muloqot qilayotganlarida ishlatiladi” deb hisoblaydi.

I.Ermatov shunday deydi: “Ilmiy terminlarning mohiyati, paydo bo‘lishi, shakllanishi va yashash sharoitini belgilaydigan eng muhim mezon bu – ilmiy lisoniy muhitdir. Har qanday ilmiy til (nutq) sintagmatik butunligini tashkil etuvchi barcha lug‘aviy birliklar ilmiy atama bo‘lavermaydi. Chunki ilmiy matnda, ularga rasmiy xoslanmagan lug‘aviy birliklar (terminlar)dan tashqari, sohaviy terminologiyaga aloqasi bo‘lmagan umumiste’oldagi so‘zlar, ularning o‘zaro grammatik aloqasini ifodalashga xizmat qiluvchi nolug‘aviy yordamchi lisoniy vositalar (affiks, bog‘lovchi va ko‘makchilar) ham ishlatiladi, ular ilmiy termin ishtirok etgan matnning sintagmatik bir butunligini ta’minlaydi, ularsiz ilmiy matn vujudga kelmaydi. Kasb-hunarga oid so‘zlar (xalq atamaları) ilmiy terminologiyaning boyishida muhim manbalardan biri bo‘lib, umumxalq terminologiyasidan ilmiy terminologiyaga ayrim lisoniy birliklar o‘zgacha lisoniy sifat va maqom bilan o‘tadi”⁵. Jumladan, tarixiy terminologiya **tarkibida alg‘ov, amin, baydoq, barlos, baqir, beka, bekat, bekach, biy, amirlik, arizachi, bekvachcha, beklik, xazinachi, bitikchi** kabi birliklar umumxalq leksikasi asosida shakllangan. Mazkur leksemalar ilmiy matn tarkibida termin sifatida qo‘llanilganda taksonomik va funksional birlik maqomini kasb etadi. Natijada ular umumxalq tiliga xos keng ma’noli leksik birlik sifatidagi vazifasidan chekinib, muayyan tarixiy tushuncha va hodisalarni aniq ifodalovchi ilmiy terminlarga aylanadi. Shu tariqa ushbu birliklar tarixiy terminologik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy muomalada faol qo‘llaniladi.

Ba’zi terminlar matn ichida ham, matn tashqarisida ham aniq ma’no ifodalab keladi. Shu sababli terminlarni umumiste’oldagi so‘zlardan farqlash lozim. Terminlarda shakl va mazmun bir-biriga muvofiq kelmagan holatlar ham uchraydi. Masalan, tarixga oid *davlat* termini “*unitar davlat*”, “*federal davlat*”, “*mustaqil davlat*” birikmalarini hosil qiladi. Bu birikmalar ko‘p ma’noli bo‘lib, turli xil vazifa va ma’noga ega. Lekin ularning ma’nolari bir-biri bilan bog‘liq.

Ba’zi manbalarda ideografik xarakterdagi sinonimiya mavjudligi haqida fikrlar mavjud bo‘lib, bu hodisalar manbalarda turlicha talqin qilinadi. Fikrimizni dalili sifatida tilshunoslar buni “terminlarda dubletlik”⁶ deb atashni tavsiya etadi. Biz ham shu fikrga qo‘shilgan holda dublet deb nomlashni lozim topdik: *qatag‘on va repressiya, betaraflik va neytralitet, muovin va o‘rinbosar, muhojir va emigrant, tijoratchi va kommersant, kotib va*

⁴ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. док. (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 21.

⁵ Ermatov I. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi. O‘quv qo‘llanma. – Guliston, 2024. – B. 18.

⁶ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. док. (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 22.

sekretar, hamkor va sherik, mustaqil va suveren, muxtor va avtonom, umumbashariy va global kabi terminlarda uchraydi.

“Termin va soʻzlarning oʻzaro oʻxshashligi tilning mazmun jabhasiga koʻra boʻladi, xolos. Terminlarning soʻzlar bilan til mazmun jabhasiga xos oʻxshashligining yana bir tomoni bor: terminlarda ham, soʻzlarda boʻlgani kabi, dubletlik, koʻp maʼnolilik, antonimiyaga yaqin ekvonimlik, sinonimlik va giponimlik xususiyatlari boʻladi”⁷. Sohaviy terminlar tizimida *rayon va tuman, sovet va kengash, reforma va islohot, mustamlakachilik va intervensiya, qoʻshin va armiya, ministr va vazir, noib va deputat* singari dublet va sinonim (maʼnodosh) lugʻaviy birliklar mavjud. Bu lugʻaviy birliklar koʻp maʼnoli va koʻp vazifali hisoblanadi.

B.Suyunov fikricha, “terminlarning umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqli jihati shundaki, ularning qoʻllanilish doirasi chegaralangan boʻladi. Tilda terminlar oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi, aksincha, zarurat va ehtiyojga qarab yuzaga keladi. Shuningdek, oddiy soʻzdan farqli ravishda, terminning maʼnosi kontekstga bogʻliq boʻlmaydi. Muayyan leksema terminologik maydonda termin sifatida qoʻllanar ekan, uning ayni maʼnosi saqlanib qolaveradi. Biroq koʻp komponentli terminlarning aniq maʼnosini belgilab olish uchun kontekst zarurdir”⁸.

Aytish joizki, termin va umumtil lugʻaviy birliklar doim bir-birini taqozo etadi. Buning natijasida terminologik tizim rivojiga umumtil leksikasi, umumtil leksikasining rivojiga terminologik tizim munosib hissa qoʻshadi. Jumladan, *amir, ellikboshi, yuzboshi, eshik ogʻa, dasturxonchi, parvonachi* singari lugʻaviy birliklarning maʼnolarida ixtisoslashish yuz berishi sababli, oʻzbek terminologik tizimi birligiga aylangan. Shu jumladan terminologik sistemadagi *islohot, jamoa, arbob, vazir, jadid, zakot, mulozim, mudofaa, rais, tanob* kabi terminlar hozirgi oʻzbek umumtil mulkiga aylangan.

Demak, baʼzi soʻzlar zamon va makonda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar natijasida maʼno berish xususiyatini, yaʼni oʻz kuchini yoʻqotadi. Maʼlum vaqt oʻtib aynan shu soʻzlar yana nutqqa termin sifatida qaytish ehtimoli mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy oʻquv yurtlarining oʻzbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
2. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977.
3. Dadaboyev H. Oʻzbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
4. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. док. (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022.
5. Suyunov B. Terminlarni boshqa til birliklaridan farqlab olish masalasi // Oʻzbek tilini dunyo miqyosida keng targʻib qilish boʻyicha hamkorlik istiqbollari. – Toshkent, 2020.

⁷ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. док. (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 23.

⁸ Suyunov B. Terminlarni boshqa til birliklaridan farqlab olish masalasi // Oʻzbek tilini dunyo miqyosida keng targʻib qilish boʻyicha hamkorlik istiqbollari. – Toshkent, 2020. – Б. 79.